Til o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodlar

(Andragogik ta’lim misolida)

Alimova Madina

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada til ta’limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodlar hamda xorijiy til o‘qitish jarayonidagi yosh xususiyatlarini ahamiyati haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Andragogika, ta’lim, xorijiy til, metodika, texnologiya.

“Yaxshi metodsiz yaxshi o‘qituvchi bo‘lishi mumkin emas”

B. V. Belyaev

Zamonaviy jamiyat vakili xorijiy tillarni o‘rganish orqali nafaqat globallashuv balki iqtisod, siyosat va madaniyat sohalaridagi jahon standartlariga mos kadr sifatida tarbiyalanadi. Xorijiy tillarni bilish raqobatbordosh kadrning sifatlaridan biridir. Shu sababli ko‘plab tashkilot va korxonalar o‘z xodimlarini til o‘rgatish kurslariga jalb qilishmoqda . O‘sib borayotgan talablar sababli ta’limiy sohada kattalar auditoriyasi uchun turli metodikalar asosida dasturlar, til kurslari ishlab chiqilmoqda. Malaka oshirish va qayta tayyorlov kurslari yoki xorijiy til o‘rgatish markazlari uchun yangi metodika ustida izlanish, ishlab chiqish hamda amilyotga tadbiq etish aktual masalalardandir. Xorijiy til o‘rganayotgan katta yoshli o‘rganuvchilar uchun muqobil pedagogik rejani ishlab chiqish murakkab jarayondir. Chunki ishlab chiqilgan rejada yosh xususiyatlari, tinglovchilarning bilim darajasi bilan birga o‘rgatilayotgan til xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Katta yoshli o‘rganuvchilarga bilim berishga nisbatan andragogika tushunchasi qo‘llaniladi. Ilk martta “Platonning pedagogik qarashlari” nomli kitobida K.Kapp tomonidan andragogika termini qo‘llangan. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib andragogikani mustaqil ilmiy soha sifatida M.Noulz, R.Smit, P.Djarvis, S.I.Zmeev, T.E.Zmeeva, A.A. Makarenyalarning ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin. [1] Andragogika termini haqida ma’lumotga ega bo‘ldik biroq til andragogikasichi? bu “, katta yoshdagi o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishning yosh xususiyatlarini, shuningdek ushbu jarayonni pedagogik boshqarishning samarallarini ochib beruvchi chet tillarini o‘qitish metodikasining bo‘limidir”. [2]

R. P. Milrudning tadqiqotlariga ko‘ra, kattalar uchun chet tili kursiga qo‘yiladigan asosiy pedagogik talablar quyidagilar:

- belgilangan maqsadga muvofiq dastur tuzish.

-o‘quv dasturi mazmunining shaxsiy ahamiyati

[1]Кукуев А.И. Андрагогика: этимология употребления термина в зарубежной науке // Проблемы современного образования. 2010. № 5. С 30-35

[2] Мильруд Р.П. Актуальные проблемы языковой андрагогики // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В.И. Вернадского. 2016. № 1 (59). С. 176-18

-kursning amaliyligi[3]

Andragogik yondashuv xorijiy tillarni o‘rgatishda ustuvor hisoblanadi. Shunday qilib, andragogik yondashuv mustaqillik va ishonchni rivojlantirish, xorijiy tilda bilimlarni o‘zlashtirish, chet tilidagi nutq faoliyatida faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Andragogik yondashuvda ham ta’lim metodlarining o‘rni katta. Katta yoshdagi o‘rganuvchilar bilan ishlaydigan o‘qituvchilar ta’limiy metodlarga ko‘proq e’tibor qaratishadi. O‘qitish usullari-bu o‘quv maqsadiga erishish usullaridir. Ular mazmuni, tinglovchilar kontingentining xususiyatlari va ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Darsning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qitish usulini tanlashga va o‘qituvchining ularni amalga oshirish qobiliyatiga bog‘liq. Quyida xorijiy tillarni o‘qitishda foydalansa bo‘ladigan ayrim metodlarni tavsiya qilamiz:

-tarjima metodi(asosan o‘lik tillarni o‘rganishda qo‘llaniladi, so‘zlar va grammatik qoidalar yod olinadi);

-og‘zaki metod (o‘qituvchi monologini qayta so‘zlash va matn bo‘yicha savolarga javob berish tizimiga asoslaniladi); -psixologik metod (so‘z va so‘z bildirgan tushuncha o‘rtasida assotsiatsiyalarni topishga asoslaniladi);

-to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rgatish metodi (chet til ona tiliga yoki biror boshqa tilga murojaat qilmasdan, umuman tarjimadan foydalanmagan holda o‘rgatiladi); -o‘qish metodi (talaba o‘rganilayotgan til qancha ko‘p matn o‘qisa, u mazkur tilning xususiyatlari, grammatik qoidalari, gap qoliplarini shunchalik ko‘p o‘zlashtiradi va shu tariqa tushunish, gapirish, yozish ko‘nikmalari ham rivojlanadi) .[4]

-o‘yin texnologiyasi, o‘quvchining kommunikativ, ijodiy va kasbiy ko‘nikmalari ishtirok etadigan haqiqiy nutqiy holatini taqlid qilishga imkon beradi. O‘yin texnologiyasiga quyidagi o‘yin turlari kiradi: grammatik, leksik, fonetik, kommunikativ, rolli o‘yinlar va h.k.lar [5]

-dumaloq stol ishtirokchilar suhbatga taklif qilinadi . Va ulrga ba’zi bahsli masalalarda suhbatlashish taklif etiladi. Suhbat davomida har bir ishtirokchi o‘z nuqtayi nazarini nutqi orqali to‘g‘ri ekanini isbotlashga urunadi hamda boshqalarni fikrini tinglaydi.[6]

-loyiha metodi-til o‘rganuvchilar o‘rganilayotgan xorijiy tilida mustaqil yoki guruhlar tarkibida ma’lum bir muammoni tadqiqotchilik, ijodiy, amliy hamda kommunikativ qobilyatlari orqali yechim izlashadi. Loyiha bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Har bir ishtirokchiga vazifalar taqsimlanadi. Misol uchun loyiha doirasida ma’lumot izlash, muammoni hal qilish uchun farazlarni ilgari surish, izlanish olib borish, turli gipotezalar taqdim etish va muhokama qilish loyiha yakunida esa real natijalarni taqdim etish kerak bo‘ladi.[7]

---

[3] Мильруд Р.П. Уроки языковой педагогики: между прошлым и будущим [Электронный ресурс]. – Режим доступа : http://iyazyki. prosv.ru/2015/04/language-andragogics/

[4] Adilova S.A. Xorijdagi til ta’limi metodlariga doir//Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal.2016. № 5. 83-b.

[5] Мясникова И.В. Игровой метод с использованием информационных технологий в обучении иностранному языку, как средство формирования коммуникативной компетенции // Современное образование: актуальные вопросы, достижения и инновации: сборник статей победителей V международной научно-практической конференции. 2017. С. 138-141

[6] Азизова С.М. Метод круглого стола в процессе обучения ино-странному языку в вузе // Гуманитарные науки и образование. 2017. № 4 (32). С. 7-11

[7] Белянина А. Метод проектов в обучении иностранным языкам // Высшее образование в России. 2006. № 12. С. 74-77.

Xulosa qilib aytganda andragogik yondashuvda kattalar ta'limi hamda jamiyatdagi talab va ehtiyojlar asosida maxsus dastur va darsliklarni ishlab chiqish hamda muqobil metodlardan foydalanish kerak. Katta yoshdagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Andragogik yondashuvning asosiy sifati ijtimoiy va fiziologik xususiyatlarni hisobga olishdir. Shunday qilib, kattalarga xorijiy tilini o'rgatishda o'rganuvchilarga o'qitilayotgan tilning murakkabligi darajasini, yosh jihatini hisobga olish, kattalarga mos o'qitish usullarini tanlash, ta'lim rejasini ishlab chiqish kabi jihatlarni hisobga olish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Adilova S.A. Xorijdagi til ta'limi metodlariga doir//Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2016. № 5.
2. Азизова С.М. Метод круглого стола в процессе обучения ино-странному языку в вузе // Гуманитарные науки и образование. 2017.
3. Кукуев А.И. Андрагогика: этимология употребления термина в зарубежной науке // Проблемы современного образования. 2010. № 5.
4. Мильруд Р.П. Актуальные проблемы языковой андрагогики // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В.И. Вернадского. 2016. № 1 (59).
5.Мильруд Р.П. Уроки языковой педагогики: между прошлым и будущим [Электронный ресурс]. – Режим доступа : http://iyazyki. prosv.ru/2015/04/language-andragogics/
6. Мясникова И.В. Игровой метод с использованием информационных технологий в обучении иностранному языку, как средство формирования коммуникативной компетенции // Современное образование: актуальные вопросы, достижения и инновации: сборник статей победителей V международной научно-практической конференции. 2017.